



HUMAN
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 3-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 3 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Axmedov Oybek Saporbaevich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: oybekakhmedov1978@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3122-1973

Samigova Xushnuda Batirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: kabsam@yandex.ru
ORCID: 0009-0005-2327-106X

Eshmo‘minov Asqar Allamurodovich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: asqar@list.ru

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: mexrishka82@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1198-0326

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O‘zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – Yuridik fanlar

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1721-0189

Ilhombekov Jasurbek Ilxombek o‘g‘li
Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o‘qituvchi.
E-mail: jafarbak22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

Imomov Nurillo Fayzullaevich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: nurillo_1212@mail.ru
ORCID: 0000-0001-8090-842X

Pirmatov Otabek Shavkatovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: pirmatov.otabek.89@inbox.ru
ORCID: 0000-0002-0774-661

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: ismoilov.shuhrat80@mail.ru
ORCID: 0000-0003-0947-6163

Matkarimov Kudrat Kalandarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: qudrat1979uzb@gmail.com
ORCID: 000-0003-0396-4027

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: dr.profil14@gmail.com
ORCID: 0000-0002-4940-3762

Hakimov Komil Baxtiyarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

Kadirova Moxigul Xamitovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: m.kadirova@tsul.uz
ORCID: 0000-0003-1450-7542

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Yusupov Shakir

AMIR TEMUR DAVRIDA XORAZM: XX ASR TARIXSHUNOSLIGIDA SIYOSIY VA TARIXIY-
MADANIY JARAYONLARNING YONDASHUV VA TALQINLARI5-10

Ubaydullayev Oybek

SHURABASHAT POTTERY AS ARCHAIC FORMS OF
ANCIENT POTTERY PRODUCTION 11-15

Matkarimova Nazokat, Matnazarova Dilorom

XORAZM XALQ SAN'ATIDA OILAVIY QADRIYATLARNING
MADANIY-KONSEPTUAL TALQINI 16-20

PSIXOLOGIYA FANLARI

Jurakulova Dildora

O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQNI BARTARAF ETISH JARAYONIDA TARBIYAVIY
YONDASHUVINING INNOVATSION IMKONIYATLARI 21-24

Konratbaeva Ayjamal

TIL O'RGANISH JARAYONIDA GAPIRISH KO'NIKMASI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK
OMILLAR O'RNI 25-28

TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Article / Original Paper

AMIR TEMUR DAVRIDA XORAZM: XX ASR TARIXSHUNOSLIGIDA SIYOSIY VA TARIXIY-MADANIY JARAYONLARNING YONDASHUV VA TALQINLARI

Yusupov Shakir Xaitbayevich.

Ma'mun universiteti Tarix kafedrasida dotsenti v.v.b.

E-mail: shakiryusupov75@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV–XV asrlardagi Xorazm vohasining tarixiy-madaniy jarayonlari haqida ilmiy tadqiqot olib borgan XX asrning bir qancha olimlari, V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, I.Mo'minov, Y.G'.G'ulomov, N.N.Vakturskaya, M.M.Mambetullayevlar asarlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Hukmron mafkura, Movarounnahr, Xorazm, ilmiy risola, maqolalar, hisobotlar, monografiyalar, me'morchilik, "Temuriylar kulolchiligi", Xiva, Chig'atoy, kumush va mis tangalar.

KHOREZM DURING THE ERA OF AMIR TEMUR: APPROACHES AND INTERPRETATIONS OF POLITICAL AND HISTORICAL-CULTURAL PROCESSES IN 20TH-CENTURY HISTORIOGRAPHY

Yusupov Shakir Khaitbayevich

Acting Associate Professor, Department
of History, Mamun University

Annotation. The present article analyzes the works of several prominent 20th-century scholars specifically V.V. Bartold, A.Y. Yakubovskiy, S.P. Tolstov, I. Muminov, Y.G. Gulyamov, N.N. Vakturskaya, and M.M. Mambetullaev—who conducted scientific research on the historical and cultural processes of the Khorezm oasis during the 14th and 15th centuries. The study examines the historiographical evolution of approaches towards the political and cultural developments of the region during the Timurid era.

Keywords: Dominant ideology, Transoxiana, Khorezm, scientific treatises, articles, reports, monographs, architecture, "Timurid ceramics", Khiva, Chaghatai, silver and copper coins.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i3v2y2026/n01>

KIRISH

O'zbekiston tarixini zamonaviy talab darajasida o'rganish, tarixiy-madaniy jarayonlar, o'tmish voqealarini yangi ilmiy yondashuvlar va qarashlar asosida ilm-fanda e'tirof etilgan tamoyillar orqali tavsiflash, asl manbalarga tayangan holda tahlil etish hozirgi kunning muhim vazifasi hisoblanadi. Shu ma'noda, turli mintaq va xalqlarga xos madaniy merosni saqlash, kelajak avlodga yetkazish hamda ularni ilmiy asosda o'rganish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

XIV asr 70-yillaridan to XV asr oxirigacha bo'lgan davrdagi Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy holati sobiq sovet tarixshunosligida ham, tabiiyki, o'zining haqqoniy aksini topgan emas.

So'nggi arxeologik tadqiqotlar natijalari va shu davr manbalarining yangicha talqini Xorazmda yangi shaharlarning shakllanishi hamda ilgarigi shaharlarning me'moriy jihatdan ta'mirlanish ishlari XIV–XV asrlarda faollashganligidan dalolat berib, qo'lga kiritilgan faktlar buni tasdiqlaydi.

Mavzuga oid tadqiqotlar yetarli darajada yoritilgani holda, aksariyati bir tomonlama, atroflicha chuqur va xolis tadqiq qilinmasdan, shuningdek, mafkuraviy jihatdan cheklangan yoki hukmron yakka mafkura talablaridan kelib chiqqan holda yoritilgan. Shulardan kelib chiqib, mavzuni o'rganilganlik darajasini quyidagicha guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Xorazmning Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid XIX asr ikkinchi yarmidan – XX asr boshigacha bo'lgan davrdagi manbalar va tadqiqotlar.

2. XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrga oid sobiq sovet va xorijiy tadqiqotchilar asarlari ma'lumotlari.

3. XX asrning 90-yillaridan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda olib borilgan arxeologik izlanishlar va tadqiqotlar natijalari.

Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatiga oid ilmiy adabiyotlarning Xorazm vohasiga xos jihatlari, shuningdek, birlamchi manbalardagi umumiy ma'lumotlarning ishonchlilik sifatleri o'rganilgan.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

Ma'lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda o'tmish tariximizni, boy madaniy va ma'naviy merosimizni, yirik allomalarimiz va buyuk davlat arboblarmiz tarixini yangi asoslarda hamda aniq fakt va ma'lumotlar, moddiy va ma'naviy asoslarga tayangan holda xolisona o'rganishga e'tibor kuchaydi. Amir Temur o'z vaqtida Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq davlatlari taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan katta ishlarni amalga oshirib, jahon tarixida o'ziga xos o'chmas iz qoldirgan. Shu ishlarning e'tirof etilishi, tarixning haqqoniy o'zanga burilishi boshlanganiga, tarix nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, hali hech qancha bo'lgani yo'q, ammo tarixiy haqiqatni ro'yobga chiqarish borasida ancha-muncha bo'lishiqlar to'ldirildi va salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Aslida, Amir Temur va temuriylar davrini xolisona baholash XX asrning 70-yillarida akademik I.M.Mo'minov qalamiga mansub maxsus risoladan boshlangan edi[1, B.51]. Ammo mazkur risolaga dushmanlarcha munosabat, ayovsiz tanqidlar, siquvlar iskanjasi, oxir-oqibat, olimning hayoti erta yakun topishiga olib keldi. Garchi bu risola manbalar ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, maqtash, ideallashtirish, bir tomonlama munosabatdan yiroq bo'lsa-da, ammo sovet mafkurasi ta'sirida shakllantirilgan tarixiy adabiyotlardagi Amir Temur obrazining aksini o'quvchiga xolisona tasvirlab bergan edi. Mustaqillikka erishilgandan keyin Amir Temur va temuriylar davri Movarounnahr va Xorazm vohasi tarixiga oid yangi fikrlar akademik A.A.Asqarov[2, C.38-40, 16-25] va boshqa olimlarning ma'ruza, ilmiy maqolalarida chop etildi[3, C.86-87]. Jumladan, A.A.Asqarovning chiqishida Amir Temur va temuriylar davridagi Xorazmning siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixini o'rganishda mustaqillik nuqtai nazaridan kelib chiqib bildirilgan fikrlar mavjud.

TADQIQOT NATIJALARI.

Ilmiy adabiyotlar tahliliga kirishar ekanmiz, XX asr dastlabki yillaridan boshlab V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, I.Mo'minov va boshqa bir qator olimlarning tadqiqot ishlariga to'xtalamiz. Ma'lumki, ular o'z asarlarida XIV–XV asrlarda Xorazmdagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy ahvolni ozmi-ko'pmi o'rganishga muayyan darajada e'tibor qaratishgan.

Chunonchi, yuqorida qayd etilgan mualliflar o'z tadqiqotlarida Amir Temur va temuriylar davri voqea tarixini yoritishga u yoki bu darajada aniqlik kirituvchi ma'lumotlarni keltirib o'tganlar. Buni e'tirof etgan holda, yana shuni ham qayd etish joizki, ushbu tadqiqotlarda Xorazmning siyosiy ahvoriga bag'ishlangan ma'lumotlar ko'proq keltirilgan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot masalalari mazkur tadqiqotlar doirasidan chetda qolgan.

Taniqli sharqshunos, akademik V.V.Bartold (1869–1930) birinchilardan bo'lib Amir Temur va temuriylar tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Muallif yozma manbalar asosida, ulardagi ma'lumotlarni puxta o'rganish orqali temuriylarga doir ma'lumotlarni rus sharqshunosligida ilmiy jihatdan talqin qildi. Olim o'zining bir qancha asarlarida qisqa bo'lsa-da, lekin ishonarli tarzda Temur va temuriylar davri manbalari[4, C.99-106.], siyosiy ahvoli va taniqli shaxslar faoliyatiga baho bergan[5, C.266, 153-154, 362-364]. V.V.Bartold temuriylar davrining iqtisodiy va siyosiy holatini aks ettirib, Xorazm va Movarounnahr hayotiga oid jarayonlar haqida ham fikrlar bildiradi. Uning asarlarida Amir Temur davriga oid ishlar masalalariga bag'ishlangan turli xil muammoli sharhlar keltirilgan, xulosalar ilgari surilgan. Bizni olimning mumkin qadar Amir Temur va uning davriga bergan baholari qiziqtiradi.

V.V.Bartoldning Amir Temur tarixi u yoki bu darajada tilga olingan asarlarida Sohibqironning shaxsiy sifatiga bog'liq fikrlar, xabarlar, shaxmat o'yiniga ishqibozligi, olimlarga g'amxo'rliqi, tashqi siyosatdagi bilimdonligi qisqa, ammo ishonchli satrlarda bayon etilgan. "Chingizxon bilan Temur o'rtasidagi tafovut keyingisining keng ilmliligi bilan belgilanadi", – deb yozgan edi akademik V.V.Bartold "Brokgauz-Efron" ensiklopediyasining Amir Temurga bag'ishlangan maqolasida[6, C.195-196].

Mavzuga doir XX asr adabiyotlari tahlil qilinar ekan, Xorazm va Movarounnahrning XIV–XV asr tarixini o'rganishda keyingi XX asr mobaynida temuriylar tarixi bilan shug'ullangan tadqiqotchilarga alohida to'xtalib o'tish zarur.

Bu davr bo'yicha O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar tarixiga oid bir necha asarlar yozgan professor A.Y.Yakubovskiy (1886–1953-yy.) va uning Oltin O'rda hamda temuriylar davriga oid ilmiy ishlarini alohida qayd etib o'tish maqsadga muvofiq. Uning Amir Temur va temuriylar davridagi O'zbekiston tarixiga oid fikr va mulohazalaridan ko'p jildli "O'zbekiston tarixi" kitoblarini nashrga tayyorlashda bir necha marta ayrim qo'shimchalar yoxud juz'iy o'zgartirishlar bilan foydalanilgan [7, C.435-508, 149-177]. A.Y.Yakubovskiy o'z asarlarida Oltin O'rda tarkibida bo'lgan Xorazm tarixiga alohida to'xtalib, bu borada muayyan fikrlarni ilgari suradi. Shu bilan birga, Amir Temur shaxsiga doir o'z qarashlarini bildirib[8, C.42-74], Amir Temur harbiy yurishlarining Xorazm shaharlari madaniy hayotiga ta'siri masalasiga to'xtaladi hamda jarayonga davr nuqtai nazaridan baho beradi.

A.Y.Yakubovskiyning 1930-yilda chop etgan ilmiy ishlarida Xorazm shaharlari, ularning XIV–XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti va madaniy holati Ko'hna Urganch va Mizdahkon misolida yoritiladi[9, C.551-581]. Bu asarlarda Amir Temurning Xorazmga harbiy yurishlari va uning oqibatlari haqida ijobiy fikrlar bildirilib, ayrim asosli mulohazalar ilgari surilgan. Olimning zakiyiligi esa ana shu inshootlarni shu davr Xorazm me'morchiligi bilan solishtirib, uslubiy o'xshashliklarni topganligi va shu orqali bu masalaga oydinlik kiritgani bilan belgilanadi. Bu fikrni biz muallifning Mizdahkon shaharchasi tadqiqotlari to'g'risidagi ma'lumot va xulosalarida ham ko'ramiz. A.Y.Yakubovskiy boshqa mualliflardan farqli ravishda, bu yodgorlikni tadqiq qilar ekan, yozma manbalar ma'lumotlarini arxeologik materiallar bilan taqqoslash asosida muammoni tanqidiy o'rgangan. Muallif "Mizdahkon shaharchasi" asarida

shahar hayotining so'nishi Amir Temur yurishlari sababli sodir bo'lmaganligini uqtirar ekan, bu hol Amudaryo o'zaning o'zgarishiga bog'liq, deya to'g'ri xulosaga kelgan[10, C.553, 557, 567]. Zero, shaharda hayot ancha keyin, XVI asr so'nggi choragidan boshlab so'na boshlagan. Umuman olganda, A.Y.Yakubovskiyning fikr-mulohazalari ko'pchilik tadqiqotchilar orasida mavjud bo'lgan Amir Temur harbiy yurishlari natijasida Xorazmning ko'plab shaharlari vayron qilingan edi, degan noxolis fikrlarni rad etadi.

A.Y.Yakubovskiyning fikrlarini keyingi davrlarda tadqiqotlar olib borgan taniqli arxeologlardan Y.L.Mankovskaya, G.A.Pugachenkovalar ham o'z tadqiqotlarida yangidan tasdiqladilar.

Xorazmning Amir Temur va temuriylar davri madaniy hayotini tadqiq qilishda Xorazmning shimoli-g'arbiy hududlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar ancha samarali natija beradi.

S.P.Tolstov (1907–1976) rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining (1937–1992) Xorazmning qadimgi va o'rta asrlar davri madaniyatiga oid tadqiqotlari va ularning natijalari asosida nashr qilingan ilmiy risola, maqolalar, hisobotlar, monografiyalari muhim ahamiyatga ega. Ekspeditsiya xodimlari Xorazmning o'rta asrlardagi yirik savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lgan Shemaxa-qal'ada (1948-yilda), Shoh-Sanam va Gurganjda (1952-yilda), Shehrlilikda (1963,1965-yillarda) va boshqa yodgorliklarda arxeologik tadqiqotlar olib bordilar. S.P.Tolstovning fundamental asarlarida temuriylar davriga oid ba'zi fikrlar mavjud. Lekin shuni ta'kidlash joizki, olim tomonidan yozilgan ilmiy asarlarda Amir Temur va temuriylar davri tarixiy va madaniy holatiga alohida e'tibor qaratilmagan, alohida tadqiqot obyekti sifatida maxsus o'rganilmagan. Boz ustiga olimning fikrlari XX asr sobiq Ittifoq davridagi hukmron mafkura nuqtai nazaridan ifodalangan[11. C.344, 311-314, 266-267].

Akademik Y.G'.G'ulomov (1908–1976) asarlarida ham Amir Temur va Temuriylar davri Orolbo'yi, vohadagi madaniy jarayonlarga oid fikr-mulohazalar o'z aksini topgan. Jumladan, olim o'zining "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida tadqiqot davriga taalluqli bo'lgan ba'zi tarixiy voqealarni tahlil qilishga va manbalarda keltirilgan shahar qo'rg'onlarning hozirgi qaysi yodgorlikka to'g'ri kelishini aniqlashga harakat qiladi. Masalan, olimning fikricha, manbalardagi Qumkent shahri hozirgi Shemaxa qal'a yodgorligiga to'g'ri keladi[12. C.312, 172].

Shu bilan birga, Y.G'.G'ulomov Xorazmning Xiva, Hazoras, Xonqa, Kat kabi shaharlari temuriylar davrida ham yashab kelganligi, risoladagiday faoliyat olib borganligini ta'kidlab, bu shaharlar o'sha vaqtda Xorazmning iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishini ifodalaganligiga doir asosli xulosaga kelgan. Shu bilan birga, olim Amir Temurning Shimoliy va Sharqiy Yevropa bilan amal qilib kelgan shimoliy savdo tarmog'iga bergan zarbasi voha uchun muhim bo'lgan shimoliy Ustyurt yo'liga salbiy ta'sir ko'rsatganligiga doir fikrni ham ilgari surgan.

Kompleks o'rganish harakatiga asos bo'lgan turtki O'zFA akademigi I.M.Mo'minovning yuqorida eslatilgan "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" nomli risolasi o'zbek va rus tillarida nashr etilishi bilan boshlanganligini e'tirof etish mumkin[13, B.51]. Ilmiy asosda yozilgan bu kitob keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan edi. Undagi manbaviy ma'lumotlar ishonchli omil hisoblanadi. Ya'ni, muallif Amir Temur haqida fikr yuritir ekan, asossiz va subyektiv talqinlarga yo'l qo'ymaslikka intilib, har bir fikrini birlamchi manbalarning ishonchli ma'lumotlari bilan dalillashga harakat qiladi.

Amir Temur shaxsini baholashda Yevroosiyo hududlari o'rta asrlar davri tarixi bo'yicha mutaxassis A.P.Novoseltsevning maxsus maqolasi diqqatga sazovor. Olim o'z maqolasida "Amir Temurning iste'dodli sarkarda, mohir tashkilotchi va "yaxshi diplomat" ekanligini ta'kidlab, unga baho berishda boshqa hal qiluvchi omillar birinchi o'ringa chiqadi", deb ta'kidlaydi.

Yuqorida aytganimizdek, manbalar ma'lumotlarini moddiy asoslarga qiyoslagan holda ayrim masalalarga oydinlik kiritish imkoniga ega bo'lamiz. Shu nuqtai nazardan N.N.Vakturskaya, G.A.Pugachenkova, G.A.Fedorov-Davidov kabi sovet davri tadqiqotchilarining arxeologiya va numizmatika sohasidagi tadqiqotlarida temuriylar davri Xorazm moddiy madaniyatiga oid muhim ma'lumotlar berilganki, bular tadqiq etilayotgan mavzuni oydinlashtirishga muayyan darajada hissa qo'shishga xizmat qiladi.

N.N.Vakturskayaning Shemaxa qal'ada olib borgan arxeologik qazishlari davrida ilk o'rta asrlar, xorazmshohlar, Oltin O'rda davrlari moddiy madaniyati qatlamlari bilan birga, temuriylar davri qatlamlari ham aniqlangan. Tadqiqotlar jarayonida O'rta Osiyoda XIV asrning oxiri va XV asrda "Temuriylar kulolchiligi" deb nomlangan o'ziga xos uslubning shakllanganligi ma'lum bo'ldi.

Xorazmning janubiy hududlaridagi temuriylar davri madaniyatini o'rganish bo'yicha keyingi yillarda yozilgan ilmiy adabiyotlar ancha samarali materiallar beradi. Bu hududda Xorazm vohasining iqtisodiy va siyosiy jihatdan eng nufuzli punkti, yirik yodgorlik, qadimgi shahar Xiva hisoblanadi. Manbalardagi ma'lumotlar va arxeologik tadqiqotlar aks etgan ilmiy tadqiqotlar natijalari Xivaning XIV-XV asrlarda Chig'atoy, keyin esa temuriylar davrining savdo-sotiq markazlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Xiva asrlar silsilasida o'z o'rnida Samarqand va boshqa shaharlar kabi Movarounnahr shaharlarini g'arb, janub bilan tutashtiruvchi karvon yo'lida qit'alararo bog'lanishda strategik ahamiyatga ega maskan bo'lgan.

Xivada topilgan numizmatik materiallar Xorazmdagi XIV-XV asrlarning eng ahamiyatli manbalaridan hisoblanadi. Professor M.M.Mambetullayev tomonidan Xivadagi arxeologik qazishlar vaqtida topilgan tangalar xazinasini 248 kumush va mis tangalardan iborat. Ularning ma'lum qismi (158 dona = 63,67 %) Samarqandda zarb etilgan, boshqalari Ozarbayjon, Eron, Dog'iston, Iroqda temuriylar nomidan chiqarilib, ular mamlakat doirasida muomalada bo'lgan[14, C.106-111, B.61]. Ushbu xazina Xorazmning bu davrdagi boshqa shaharlaridan topilgan temuriylar tangalari bilan bir qatorda Xorazmning tashqi savdo aloqalaridan ma'lumot beradi.

XULOSALAR. ВЫВОДЫ / CONCLUSION. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xorazmning Amir Temur va temuriylar davlati tarkibida kechgan tarixi, shu davrga oid iqtisodiy-madaniy hamda siyosiy jarayonlar vatan va xorij tarixshunosligida muayyan darajada o'rganilgan. Bu borada, ayniqsa, arxeolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari e'tiborga molik. Natijada manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga asos bo'lgan shahar va qal'alarning joylashuv geografiyasiga aniqlik kiritilib, ulardagi madaniy qatlamlardan qo'lga kiritilgan ashvoviy dalillar tadqiq etilgan davrda Xorazm vohasida iqtisodiy va madaniy hayot bir maromda uzluksiz davom etib, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy hayot taraqqiy etishda davom etganligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Мўминов И.М. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли (ёзма манбалар маълумотлари бўйича). – Тошкент, 1968. – Б. 51.

2. Аскарлов А.А. Амир Темур и Хорезм // Тезисы международной научной конференции "Амир Темур и его место в мировой истории". – Ташкент,1996. – С. 38-40; Аскарлов А.А. Амир Темур и его роль в истории // ОНУ. – №7-10. – С. 16-25.
3. Маликов А.М. К вопросу об участии хорезмских мастеров в строительстве архитектурных сооружений Самарканда в эпоху Амира Темура // Тезисы международной научной конференции "Амир Темур и его место в мировой истории". – Ташкент,1996. – С. 86-87.
4. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т. 1. – М.: Наука,1963. – С. 99-106.
5. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Соч. Т.1. Часть. 1. – С. 266; История Туркестана. -Соч. Т. 2. – М.: Наука, 1963. – С.153-154; Монеты Улугбека. - Соч. Т. IV. – М., 1966. – С. 362-364.
6. Бартольд В.В. Тимур // Энциклопедический словарь "Брокгауз-Ефрон". Том XXXIII. – СПб., 1901. – С.195-196.
7. Якубовский А.Ю. Государство Тимура. Мавераннахр и Хоросан при Тимуридах (XV в.) // В кн: История Узбекской ССР. Т. 1. – Ташкент, 1967. – С. 435-508; Правление Тимура (1370-1405) // В кн: История народов Узбекистана. Т. 1. – Ташкент,1992. – С.149-177.
8. Якубовский А.Ю. Тимур. Опыт краткой политической характеристики // Вопросы истории. – М., 1946. – №8-9. – С. 42-74.
9. Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча // Известия ГАИМК. Т. 6. Вып. 2. – Л., 1930. – С. 5-68; уана qarang: Городище Миздахкан // Записки Коллегии Востоковедов. Т. V. – Л., 1930. – С. 551-581.
10. Якубовский А.Ю. Городище Миздахкан // Записки Коллегии Востоковедов. Т. V. – Л., 1930. – С. 553, 557, 567.
11. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: Наука, 1948. – С. 344; O'sha muallif. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: изд-во МГУ, 1948. – С. 311-314; O'sha muallif. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Наука, 1962. – С. 266-267.
12. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации– М.: изд-во МГУ, 1948. – С. 312; Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма. – Ташкент,1959. – С.172.
13. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент,1968. – Б. 51.
14. Мамбетуллаев М., Хожаниязов Г. Хивинский клад. Темуридские монеты // Вестник ККОАН РУ. 2004. – №2. – С. 106-111; Кдырниязов М.-Ш. Амир Темур ва темурийлар даврида Хоразмдаги ижтимоий-иқтисодий аҳвол // Амир Темур ва темурийлар салтанатининг интеллектуал салоҳияти / Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2006. – Б. 61.
15. Yusupov, S. (2026). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI. In ILMIYARXIV. <https://ilmiyarxiv.com/index.php/preprint/preprint/view/29>.



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 3 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com